

buxgalteriya hisobi uchun investitsiya mulkini adolatli qiymatida baholash usulining afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash; investitsiya mulkini qayta baholash natijalari bo'yicha investitsiya mulki to'g'risida hisobot berishning eng maqbul usulini aniqlash; investitsiya mulkini adolatli qiymatda baholash uchun daromadlarni baholash usullaridan foydalanish imkoniyatini aniqlash; investitsiya mulkini adolatli qiymat bo'yicha daromad usulidan foydalangan holda baholashda tavakkalchilikni hisobga olishning optimal modeli taklifini berish lozim bo'ladi.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar:*

1. 40-MHXS "Investitsion mulk"
1. Ганин Б.Г. Гармонизация ПБУ и МСФО в части оценки инвестиционной собственности // Вестник БУПК. Белгород. 2016. № 4.
2. Ганин Б.Г. Сравнение международных и российских стандартов учета инвестиционной собственности // сборник материалов по итогам Междунар. науч.-практич. конф. «Татуровские чтения». М., 2015.
3. Финансовый учет / Кеулимжаев К.К. [и др.] Алма-Ата, 2013. С. 25.
4. Палий В.Ф. Международные стандарты учета и финансовой отчетности: учебник. 3-е изд., испр. и доп. М.: ИНФРА-М. 512 с.
5. Тулешова Г.К. Финансовый учет в соответствии с международными стандартами (часть 1, 2) // Законодательство и экономика. Алма-Ата. 2013. № 4. С. 40.
6. Кузьменко В.В. Применение метода инжинирингового контроллинга в управлении инновационными проектами // Вестник Иркутского государственного технического университета. 2013. № 6 (77). С. 190–198.
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/aksionerlik-jamiyatlarida-investitsion-mulk-hisobini-takomillashtirish/viewer>
8. [https://oriens.uz/media/journalarticles/121\\_Axmadaliyeva\\_Zebo\\_Abduxalimovna\\_801-811.pdf](https://oriens.uz/media/journalarticles/121_Axmadaliyeva_Zebo_Abduxalimovna_801-811.pdf)

## **O'ZBEKISTON BANK TIZIMINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI**

*Abdusamatov Mamaysup*


*Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti  
Moliya va statistika kafedrasi o'qituvchisi*

Ma'lumki, mamlakatimiz iqtisodiyotining buguni va ertasi qanday bo'lishi ko'p jihatdan moliya-bank tizimini isloh qilish jarayonida ularning barqarorligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini keng ko'lamda rivojlantirish, qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy muassasalar faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiq yanada takomillashtirish, ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar hajmini kengaytirish, iqtisodiy tarmoqlarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda eng asosiysi, aholining ishonchini oshirish yuzasidan erishilayotgan natijalarga bog'liqdir.

Hozirgi davrda iqtisodiyotni liberallashtirish va innovatsion texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash, tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish hamda moliyaviy

mexanizmlarini takomillashtirish bank tizimini isloh qilish, uni barqarorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridir.


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2020 yil 12 maydagi farmoni bilan "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi"da "Moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati ko'rsatishni modernizatsiya qilish, bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash" ning ustuvor yo'nalishlari e'tirof etilgan [1].



**1-rasm. Bank tizimining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni**

Banklar tadbirkorlik sub'ektlari va investitsiyalarni moliyalashtirish, aholiga kreditlar berish va iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi. Bank sektori samarali faoliyat ko'rsatsa, moliyadan foydalanish imkoniyatini oshirish, investitsiyalarni ko'paytirish va yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradi. Bu iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Rivojlanishning ma'lum darajasiga erishish mamlakat iqtisodiyoti va bank tizimining o'zaro hamkorligini optimallashtirishning asosidir. Bir tomondan, bank faoliyatining rivojlanish sur'ati mintaqaviy umumiy iqtisodiy sharoitga ta'sir etsa, ikkinchi tomondan, bank sektorining rivojlanish darajasi mintaqaning iqtisodiy darajasini belgilaydi. Bularning barchasi bank tizimi mintaqaviy iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liqligini va ular bir-biriga ta'sir qilishini anglatadi [3].



## 2-rasm. O'zbekiston bank tizimi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

Mamlakatimiz bank tizimi bugungi kunda bank xizmatlarining an'anaviy sohalarini kreditlash, depozit operatsiyalari, hisob-kitob va kassa kabi xizmatlarni ko'rsatuvchi 33 ta tijorat bankidan tashkil topgan.

Shuningdek, bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasini iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ijobiy o'zgarishlarda ko'rishimiz mumkin.

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki tijorat banklarining aktivlari 2021yilda 444922,5 mlrd.so'm tashkil qilib 2022 yilda 556746,3 mlrd.so'mga oshgan, ya'ni 125%ga kutarilgan. 2023y 631446 mlrd.so'mni tashkil kilib 2022 yilga nisbatan 113%ga ko'paygan.

Mamlakatimiz mustaqilligi davrida banklar davlat ishtirokidagi korxonalarni va davlat rivojlanish dasturlarini imtiyozli foiz stavkalarida moliyalashtirishga faol jalb etgan holda muayyan maqsad va vazifalar uchun tashkil etildi. Natijada imtiyozli kreditlarning bank tizimi umumiy portfelidagi ulushi 60 foizdan ko'proqni tashkil etmoqda.

Bank sektorida davlat ustun mavqega ega 33 ta bankdan 13 tasining kapitalida davlat ishtiroki mavjud bo'lib, ularning kapitali bank tizimi jami kapitalning 87 foizidan ko'prog'ini, aktivlari esa umumiy aktivlarning 85 foizidan ko'prog'ini tashkil qiladi.

Bundan tashqari, bank tizimidagi ijobiy o'zgarishlarning muqaddimasi sifatida mamlakatimiz iqtisodiyotini raqamlashtirish hamda bank tizimidagi transformatsiya jarayonlari yuzasidan olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy o'zgarishlarda buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu o'z navbatida, O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarni joriy etish asosida bank sektorini davlat tomonidan tartibga solishning an'anaviy tizimini raqamli o'zgartirishni amaliy amalga oshirish iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy sharoitida tijorat banklarining raqobatdosh ustunliklarini yaratishga imkon beradi. Erishilgan samaradorlik parametrlari g'oyalardan moliyaviy

xizmatlar va platformalar prototiplariga tez o'tishga yordam beradi, bu esa risk va xarajatlarni minimallashtirish bilan birga bank foydasini oshirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda bank xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatlarini oshirish maqsadida masofaviy bank xizmatlari kompleksidan foydalanilmoqda. Masofadan xizmat ko'rsatish tizimi xarakteriga ko'ra ikki turga ajratiladi: informatsion va tranzaksion. Informatsion banking mijozlarga moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishga yo'naltirilgan bo'lsa, tranzaksion banking moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

### 1-jadval

#### Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni (2023 yil 1- yanvar holatiga)

№	Yillar	Jismoniy shaxslar	Yuridik shaxslar	Jami
1	2019	4225,4	227,9	4453240
2	2020	7599,3	359,8	7959107
3	2021	9462,5	691,0	10153458
4	2022	13748,6	822,5	14571094
5	2023	19234,8	968,6	20203384

Jadval ma'lumotlari asosida masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni yildan yilga ko'paymoqda, 2023 yilda 2019 yilga nisbatan 15750144 nafarga ko'paygan. Bu o'z navbatida, korxonalar va tashkilotlar uchun bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobvaraqlaridagi mablag'larni tasarruf etish va to'lovlarni amalga oshirish, valyuta mablag'lari sotib olish (konvertatsiya) uchun buyurtmanomani elektron shaklda xizmat ko'rsatuvchi bankka yuborish, oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni o'tkazish uchun elektron qaydnomani bankka uzatish va boshqa xizmatlardan foydalanish bo'yicha imkoniyatlar yaratildi[4].

Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarining turlari quyidagilardan iborat:

- Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshirilib, dastur asosida to'g'ridan – to'g'ri ( asosan to'lov xo'jjatlari va hisobvaraqlardan ko'chirmalar) aloqa amalga oshiriladi;

- Internet-banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini internet orqali boshqarish huquqini beradi.

- To'lovlarni o'tkazish;
- To'lov o'tishi bosqichlarini kuzatish;
- Barcha hisobotlarni olish kabi amaliyotlardan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyatini beradi.

➤ Mobil banking – internet banking texnologiyasi asosida yaratilgan;

➤ SMS – banking – bu mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko'rishida ma'lumotlarni olishdir.

Xulosa qilib aytganda, mamlakat iqtisodiyotining asosi hisoblangan bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish, yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga

erishishning ustuvor yoʻnalishlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda zamonaviy naqd pulsiz hisob-kitoblar mexanizmlarini joriy etish boʻyicha olib borilayotgan ishlar banklarimiz tomonidan mijozlarga koʻrsatilayotgan xizmatlar sifati, toʻlov intizomi va madaniyatini yangi bosqichga koʻtarilishini taʼminlash bilan birga, barcha iqtisodiy tarmoqlar taraqqiyotini mustahkamlashga ham oʻzining ijobiy taʼsirini koʻrsatadi.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar:*

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020-2025-yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoni// QHMMB: 06/205992/0581-son. 13.05.2020 y.
2. Nizamov U.N. Tijorat banklarining mamlakat iqtisodiy oʻsishida taʼsirini oʻshirish yoʻllari / Fundamental tadqiqotlar jurnali №2-2024 <https://doi.org/10.5281/zenodo.10622923>
3. Xudoyqulov S.K, Buranova L.V Hududlarning moliyaviy salohiyatiga taʼsir etuvchi omillarning tasnifi va ahamiyatligi / Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnal 2021.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bank statistik koʻrsatkichlari [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)

## **MOLIYAVIY SAVODXONLIKNING AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI YAXSHILASHDAGI ROLI**

*Iskandarova Dilafroz*

*TDIU tayanch doktoranti,*

*“Mehnat iqtisodiyoti” kafedrasida assistenti*

Bugungi kunda moliyaviy savodxonlik rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda yanada shaffof, sogʻlom va barqaror iqtisodiyotga intilishda muhim ahamiyatga ega boʻlgan masaladir.

Moliyaviy savodxonlik – shaxsiy moliyaviy boshqaruv, byudjetlashtirish va investitsiyalarni oʻz ichiga olgan turli xil moliyaviy koʻnikmalarni tushunish va samarali ishlatish qobiliyatidir.

Istalgan moliyaviy maqsadlarga erishish uchun aholining daromad topish, sarflash, tejash, qarz va investitsiyalar boʻyicha savodxonlik darajasi yuqori boʻlishi muhim hisoblanadi.

Insonlarning moliyaviy savodxonlik darajasi past boʻlishi natijasida tadbirkorlikda omadsizlikka uchrashi, oʻz moliyaviy resurslarini toʻgʻri joylashtira olmasligi mumkin. Mavjud moliyaviy bozor instrumentlaridan maqsadli foydalana olmasligi oqibatida esa kambagʻallik yoki oʻrta hol turmush darajasidan yuqori pogʻonalarga chiqishi murakkablashadi. Aholining moliyaviy savodxonligi nafaqat shaxsiy farovonlikka balki mamlakat iqtisodiyotiga ham taʼsir etishini koʻrishimiz mumkin. Masalan, fuqarolarning oʻz daromadlari va xarajatlarini aniq tasavvur qilmasligi yoki notoʻgʻri rejalashtirishi oqibatida kreditorlik qarzdorlik paydo boʻladi, moliyaviy firibgarliklar sonining oshishiga